

**“AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ORQALI CHET
TILLARNI O‘QITISHNING SAMARALI USULLARI”**

Muqumov Jo‘rabek Shermatovich

muqumovj92@gmail.com

+998993811358

Annotatsiya

Mazkur maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) chet tillarini o‘qitishdagi o‘rni va ahamiyati chuqur tahlil qilingan. AKT vositalari yordamida ta’lim jarayonining interaktivligi, o‘quvchilar faolligi va mustaqil o‘rganish imkoniyatlari oshirilayotgani, shu bilan birga, o‘qitish samaradorligini oshiruvchi usullar, platformalar va sun’iy intellekt ilovalari keng qamrovda ko‘rib chiqilgan. Duolingo, Google Classroom, Grammarly, ChatGPT kabi vositalarning afzalliklari, ularning ta’limga integratsiyasi hamda AKT asosida o‘qitishni tashkil etishning metodik va amaliy asoslari yoritilgan. Shuningdek, maqolada mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq takliflar ham berilgan. Ushbu maqola o‘qituvchilar, metodistlar va til o‘rgatuvchi muassasalar uchun foydali nazariy va amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, chet tillarni o‘qitish, interaktiv ta’lim, sun’iy intellekt, Duolingo, Google Classroom, masofaviy ta’lim, ta’lim innovatsiyalari, til o‘rgatish usullari, ta’lim samaradorligi.

Annotation

This article provides an in-depth analysis of the role and significance of information and communication technologies (ICT) in teaching foreign languages. It discusses how ICT tools enhance the interactivity of the learning process, increase student engagement, and promote independent learning opportunities. The article covers effective teaching methods, platforms, and AI applications such as Duolingo, Google Classroom, Grammarly, and ChatGPT, highlighting their benefits and integration into education. Furthermore, the methodological and practical foundations for implementing ICT-based instruction are explored. The article also presents existing challenges and concrete proposals for addressing them. This study offers valuable theoretical and practical recommendations for teachers, methodologists, and institutions involved in language education.

Keywords: Information and communication technologies, foreign language teaching, interactive learning, artificial intelligence, Duolingo, Google Classroom, distance learning, educational innovations, language teaching methods, learning efficiency.

Kirish

Zamonaviy dunyoda ta'lism jarayoni tobora raqamlashtirilmoqda va bu holat, ayniqsa, chet tillarini o'qitishda sezilarli darajada aks etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) nafaqat darsni samarali tashkil etish, balki talaba va o'qituvchi o'rtasida interaktiv muloqotni yo'lga qo'yish, o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda ularning mustaqil ta'lism olish imkoniyatlarini kengaytirish vositasi sifatida xizmat qilmoqda. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, AKT vositalaridan foydalanish ta'lism sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirish va pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, chet tilini o'rganish jarayonida turli interaktiv platformalar, onlayn mashg'ulotlar, mobil ilovalar va multimedia vositalaridan foydalanish, o'quvchilarni real hayotdagি kommunikativ vaziyatlarga tayyorlashga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lism tizimida ham AKTdan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezident qarorlariga asosan umumiyo'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lism muassasalarida raqamli ta'lism vositalari joriy etilmoqda. Jumladan, "Digital Education" platformalari, E-platforma, Moodle, HEMIS, Zoom, va Google Classroom orqali olib borilayotgan darslar buning isboti bo'la oladi. Chet tillarni o'qitishda esa Quizlet, Kahoot, Duolingo, Wordwall, BBC Learning English, va boshqa shu kabi vositalar darslarni interaktiv tarzda tashkil etish imkonini beradi. Bunday vositalar yordamida o'quvchilar grammatika, lug'at boyligini oshirish, tinglab tushunish, to'g'ri talaffuz qilish va yozma nutqni rivojlantirish bo'yicha mashqlarni bajara oladi.

Shu bois, bugungi kunda AKT vositalarini chuqur o'rganish va uni ta'lism jarayoniga to'g'ri tatbiq etish har bir til o'qituvchisi uchun zaruratga aylangan. Ushbu maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining chet tillarini o'qitishdagi o'rni, amaliy qo'llanilishi hamda o'qituvchining bu boradagi roli xususida fikr yuritiladi.

Asosiy qism

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) nafaqat jamiyat taraqqiyotining negiziy vositasi, balki ta'lism sohasida ham tub o'zgarishlar qilayotgan muhim omillardan biridir. Ayniqsa, chet tillarini o'qitish jarayonida AKTdan foydalanish, o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan munosabatini, yondashuvlarini va natijalarini tubdan o'zgartirmoqda. Zamonaviy til o'rgatish metodikasida interaktivlik, multimedya, moslashuvchanlik, real vaqt rejimidagi aloqadorlik va o'rganishning shaxsiylashtirilgan uslublari asosiy mezonlarga aylanmoqda. Quyida chet tillarini o'qitishda qo'llanilayotgan AKT vositalari va ularning o'ziga xos jihatlari yoritiladi.

1. Chet tillarini o'qitishda AKT vositalarining o'rni va ahamiyati.

Chet tilini o'rganish ko'p hollarda to'rt asosiy ko'nikma – tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirishni rivojlantirishga qaratilgan. Har bir ko'nikma uchun esa

mos va samarali metodlardan foydalanish talab etiladi. AKT vositalari bu metodlarni bir joyga jamlay oladigan ulkan imkoniyatlarga ega. Masalan, o‘quvchi mobil ilova orqali yangi so‘zlarni eslab qolishi, video orqali to‘g‘ri talaffuzni o‘rganishi, interaktiv platformalar orqali mashqlar bajarishi va boshqa foydalanuvchilar bilan bu borada muloqot qilib, o‘z nutq ko‘nikmasini mustahkamlashi mumkin.

Bundan tashqari, AKT vositalari o‘qituvchilarga ham katta qulayliklar yaratadi: masalan: dars materiallarini raqamli formatda saqlash, ularni o‘quvchilarga yetkazish, testlar o‘tkazish va natijalarni avtomatik baholash imkoniyati qolaversa ularning 4 ta ko‘nikma bo‘yicha bilimlarini takomillashtirish mavjud. Bu esa o‘qituvchi ishini yengillashtiradi va darsni individual yondashuv asosida tashkil qilish imkonini beradi.

2. Mashhur AKT platformalari va ularning afzalliklari

a) Quizlet-interaktiv lug‘at o‘rganish platformasi bo‘lib, ingliz tilidagi yangi so‘zlarni kartochkalar yordamida o‘rganish, testlar va o‘yinlar orqali mustahkamlash imkonini beradi. O‘qituvchilar o‘z sinfi uchun maxsus darsliklar tayyorlashi, o‘quvchilar esa ularni mustaqil o‘rganishi mumkin.

b) Duolingo-mashhur mobil ilova bo‘lib, o‘yin formatida chet tillarni o‘rganish imkonini beradi. Har bir darsdan keyin o‘quvchi ball to‘playdi, bu esa uni doimiy shug‘ullanishga undaydi. Duolingo nutq, eshitish, tarjima va yozish bo‘yicha mashqlarni taqdim etadi.

c) Wordwall-o‘qituvchilarga tayyor testlar, krossvordlar, to‘g‘ri-noto‘g‘ri, juftlik tanlash kabi turli xil interaktiv mashqlar yaratish imkonini beradi. O‘quvchilar esa bu mashqlarni telefon, planshet yoki kompyuter orqali bajara oladi.

d) BBC Learning English-ingliz tilini o‘rgatishga ixtisoslashgan bepul resurs bo‘lib, u yerda yangiliklar, videodarslar, talaffuz bo‘yicha mashqlar va grammatika ta’luqli izohlari mavjud. Bu vosita tinglab tushunish va haqiqiy inglizcha talaffuzni egallahsga xizmat qiladi.

e) Zoom, Microsoft Teams, Google Meet-pandemiyadan so‘ng keng ommalashgan onlayn dars platformalari bo‘lib, ular orqali o‘quvchilar bilan videoaloqa o‘rnatish, chatdan foydalanish, fayllarni ulashish va ekran ni bo‘lishish vas hu bilan birga onlayn darslar tashkillashtirish imkoniyatlari mavjud.

f) Google Classroom va Moodle-o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida raqamli ta’lim muhiti yaratadigan tizimlar bo‘lib, ularda dars materiallarini joylashtirish, topshiriqlar berish, baholash va fikr almashish imkoniyati mavjud.

3. Interaktivlik va gamifikatsiya (o‘yinlashtirish)ning ahamiyati

Gamifikatsiya-a’lim jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish orqali o‘quvchini motivatsiyalash vositasidir. Chet tillarini o‘rganishda bu yondashuv ayniqsa samarali, chunki o‘quvchi sinfdagi oddiy mashqlardan farqli o‘laroq, o‘yin shaklida yangi bilimlarni o‘zlashtiradi. Masalan, **Kahoot** platformasida testlar o‘yin shaklida tashkil

etiladi va har bir to‘g‘ri javob uchun ball beriladi. Bu raqobat muhitini yaratib, o‘quvchilarni faol qatnashishga undaydi.

Wordwall va **Quizizz** kabi platformalarda ham gamifikatsiya elementlari mavjud. O‘qituvchilar bu orqali darsni qiziqarli, jonli va interaktiv shaklda tashkil etishlari mumkin. Bunday yondashuv ayniqsa yoshlar orasida samarali natija beradi.

4. O‘qituvchining roli va AKTdan foydalanishdagi metodik yondashuv.

Texnologiyalar taraqqiy etgan bo‘lsa-da, o‘qituvchining roli o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Aksincha, o‘qituvchi bugun AKT vositalaridan unumli foydalanib, dars jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish, o‘quvchilarni baholash, rag‘batlantirish va motivatsiya berish borasida bosh rolni o‘ynaydi. O‘qituvchi har bir vositani qanday va qaysi maqsadda qo‘llashni bilsa, u holda dars sifati yuqori bo‘ladi. Misol uchun, yangi mavzuni tushuntirishda video darslardan foydalanish, so‘z boyligini oshirishda interaktiv testlar tayyorlash, yozma ishlarni baholashda esa sun’iy intellektdan yordam olish mumkin. Eng muhimmi, o‘qituvchi AKTni vosita sifatida ko‘rib, uni pedagogik maqsadga xizmat qildirishi kerak.

Olib borilayotgan darslar va mashg‘ulotlarda AKT vositalarini qo‘llash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt (ChatGPT, Copilot, Grammarly va xk) vositalaridan foydalanish, interaktiv testlar tuzish, YouTube darslarini tahlil qilish va shaxsiy onlayn dars resurslarini yaratish ustuvor yo‘nalishlardan biridir. O‘quvchilar va talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshgani kuzatilmoqda. Masalan, AKT vositalari bilan tashkil etilgan darslarda qatnashgan o‘quvchilarning so‘z boyligi va grammatik bilimlari 20–30% ga oshganligi kuzatilgan. Bu esa AKTning samaradorligini ochiq tasdiqlaydi.

Bugungi globallashuv davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) barcha sohalarda, ayniqsa ta’limda, katta o‘zgarishlar qilmoqda. Endi AKT o‘qitishning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, chet tillarini o‘rganishda bu texnologiyalar juda foydali. Ular o‘quvchilarning eshitish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, mustaqil fikrlash va tanqidiy yondashuvni shakllantiradi.

Chet tillarini o‘qitishda ishlatiladigan asosiy AKT vositalariga quyidagilar kiradi: kompyuterlar, internet, multimedia texnologiyalari, mobil ilovalar, sun’iy intellekt dasturlari, virtual vositalari, onlayn platformalar (Duolingo, Quizlet, Kahoot, Google Classroom, Moodle), elektron darsliklar, lug‘atlar, interaktiv doskalar, audio va video materiallar. Ushbu vositalarni dars jarayoniga to‘g‘ri kiritish orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilash mumkin.

Chet tilini o‘rganish – bu faqat grammatikani yodlash emas, balki boshqa madaniyat vakillari bilan bemalol muloqot qilish imkoniyatini ham beradi. Masalan, videokonferensiyalar orqali xorijdagi talabalar bilan suhbatalashish, virtual ekskursiyalarda ishtirok etish yoki ingliz tilidagi yangiliklarni tahlil qilish orqali nafaqat til, balki madaniy bilimlar ham rivojlanadi.

AKT vositalarining ba'zi asosiy afzalliklari:

1. **Moslashuvchanlik** – har kim o‘ziga qulay vaqtida, o‘z uslubida til o‘rganadi.
2. **Individual yondashuv** – har bir o‘quvchining darajasiga mos material tanlanadi.
3. **Multimediya** – matn, ovoz, video va animatsiyalar orqali bilim beriladi.
4. **Motivatsiya** – darslar qiziqarli va o‘yinlarga boy bo‘ladi.
5. **Baholash osonligi** – testlar natijasi avtomatik tarzda chiqariladi.

Quyidagi platformalar bu imkoniyatlarning yorqin namunasi hisoblanadi:

- **Duolingo** – o‘yin tarzida yangi so‘zlar va iboralarni o‘rganish imkonini beradi.
- **BBC Learning English** – ingliz tilida eshitish va tushunishni rivojlantiradi.
- **Kahoot** va **Quizizz** – testlar orqali bilimni mustahkamlaydi, darsni qiziqarli qiladi.
- **Google Classroom** – barcha topshiriqlar va baholarni bir joyda boshqarish imkonini beradi.
- **Grammarly, ChatGPT, QuillBot** – yozma nutqni yaxshilashda, grammatik xatolarni tuzatishda yordam beradi.

Yangi texnologiyalar – **VR (virtual haqiqat)** va **AR (kengaytirilgan haqiqat)** ham til o‘rganishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Masalan, VR ko‘zoynak orqali Londondagi muzeyga virtual sayohat qilib, ingliz tilida tushuntirishlarni tinglash mumkin. Bu tilni real muhitda o‘rganishga imkon beradi.

AKT vositalaridan to‘g‘ri foydalanish uchun quyidagi yondashuvlar foydali:

- Vositalarni mavzuga mos tanlash;
- O‘quvchi darajasiga qarab materialni tanlash;
- Mustaqil ishslashga yo‘naltirish va kerakli ko‘rsatmalar berish;
- O‘quvchilarni darsda faol ishtiroy ettirish;
- Baholashniadolatli va ochiq tashkil etish.

Xulosa

Zamonaviy ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Xususan, chet tillarini o‘qitishda AKT vositalaridan foydalanish nafaqat metodik yondashuvlarni yangilash, balki o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni samarali tashkil etish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Chet tilini o‘rganish jarayonida interaktiv platformalar, multimedia resurslari, sun’iy intellekt ilovalari, mobil ilovalar, onlayn test tizimlari, virtual sinflar va boshqa innovatsion texnologiyalar orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv, tanqidiy tahlil va muomala ko‘nikmalari shakllanmoqda.

Maqlolada ko‘rib chiqilganidek, Duolingo, BBC Learning English, Google Classroom, Kahoot, Grammarly, ChatGPT va shu kabi texnologik vositalar chet tilini o‘rganishda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Bu platformalar orqali

o‘quvchilar mustaqil ravishda mashq bajarish, tinglab tushunish, yozma nutqni rivojlantirish, grammatikani mustahkamlash imkoniga ega bo‘lishmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt asosida yaratilgan vositalarning ta’limga joriy qilinishi o‘qituvchilar faoliyatini yengillashtiradi, o‘quvchilar uchun esa shaxsiy yondashuvni ta’minkaydi. Bundan tashqari, AKTning chet tillarini o‘qitishdagi roli nafaqat texnik vosita sifatida, balki didaktik yondashuv sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, o‘yinlashtirish, masofaviy ta’lim, differensial yondashuv, muammoli ta’lim kabi metodlar AKT orqali yangi bosqichda tatbiq etilmoqda. AKT vositalari orqali til o‘rgatish o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil izlanishga undaydi, ta’limni ko‘ngilochar va samarali jarayonga aylantiradi. Shu bilan birga, O‘zbekiston ta’lim tizimida ham bu borada sezilarli yutuqlarga erishilmoxda. Respublika miyyosida AKTdan foydalanishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha hukumat qarorlari, metodik qo‘llanmalar, tajriba darslari, xalqaro hamkorliklar bu jarayonni chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda. Biroq hali qilinishi lozim bo‘lgan ishlar ko‘p: infratuzilmani mustahkamlash, o‘qituvchilarning AKT savodxonligini oshirish, zamonaviy kontentlar yaratish, ta’lim tizimini AKTga moslashtirish kabi vazifalar dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, AKT vositalari chet tillarini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar asosida ta’limni takomillashtirish, ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini zamon talablari darajasida shakllantirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida bu texnologiyalarni yanada samarali joriy qilish, mahalliy ehtiyojlarga moslab takomillashtirish, o‘qituvchilarni doimiy tarzda malaka oshirishga yo‘naltirish ta’lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonning uzuksiz va izchil davom etishi orqali O‘zbekiston ta’limi jahon standartlariga mos ravishda rivojlanishga erishish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Chet tillarini o‘rganishni ommalashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4851-son qarori.
2. Hasanboeva N.A. *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 256 b.
3. Axmedova D.X. *Chet tillarni o‘qitishda AKTdan foydalanishning didaktik asoslari.* – Samarqand: SamDChTI, 2021. – 180 b.
4. Duolingo rasmiy veb-sayti – <https://www.duolingo.com>
5. BBC Learning English platformasi – <https://www.bbc.co.uk/learningenglish>
6. Kahoot o‘yinlashtirilgan test platformasi – <https://www.kahoot.com>
7. Google Classroom raqamli platformasi – <https://classroom.google.com>
8. Grammarly – matn tahlili va grammatikani tuzatish servisi – <https://www.grammarly.com>
9. ChatGPT sun’iy intellekt yordamchisi – <https://www.openai.com/chatgpt>